



**ONA TILI DARSLARIDA MATN TAHLILI ORQALI O'QUVCHILARDA
PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV
YONDASHUV VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR**

Ongarbayeva Juzimgul Bayram qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi (bochlang'ich

ta'lim) 1-bosqish magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida matn tahlili orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida pragmatik kompetensiyani shakllantirishning dolzarb jihatlari yoritilgan. Shu jarayonda kreativ pedagogik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar, xususan, insert, TRIZ, klaster metodlari orqali o'quvchilarning fikrlash, tushunish va erkin ifoda ko'nikmalari rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada amaliy misollar asosida bu metodlarning dars jarayonidagi samaradorligi ko'rsatilib, taklif va xulosalar ilgari surilgan. Tadqiqot pedagogik innovatsiyalarni ona tili ta'limida samarali qo'llashga qaratilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'qituvchilar uchun foydali metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: matn tahlili, pragmatik kompetensiya, kreativ yondashuv, insert, TRIZ, boshlang'ich ta'lim.

Abstract: This article explores the significance of developing pragmatic competence among primary school students through text analysis in mother tongue lessons. It emphasizes the application of creative pedagogical approaches and modern technologies, such as INSERT, TRIZ, and clustering methods, to enhance students' thinking, comprehension, and expressive skills. Practical examples demonstrate the effectiveness of these strategies in the classroom. The study is aimed at promoting



innovative practices in language teaching and offers valuable methodological recommendations for primary school educators.

Key words: text analysis, pragmatic competence, creative approach, INSERT, TRIZ, primary education.

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarda faqatgina bilim emas, balki ularni hayotga tayyorlovchi kompetensiyalarni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Xususan, pragmatik kompetensiya – o'z fikrini aniq ifoda qilish, vaziyatga mos harakat qilish, kommunikativ vazifani to'g'ri anglab yetish kabilarni qamrab oladi. Ona tili darslarida bu kompetensiyani rivojlantirishda matn tahlilining ahamiyati beqiyosdir. Shu bilan birga, ona tili darslari orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, nutq madaniyati va muloqotga tayyorligi ham rivojlanadi. Zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – o'quvchini faol fikrlovchi, tahlilchi va muqobil yechimlar taklif eta oluvchi shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu esa kreativ yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning kundalik darslarga singdirilishini taqozo etadi.

Matn tahlili o'quvchilarning nafaqat til boyligini, balki mantiqiy fikrlash, matndan to'g'ri xulosa chiqarish, muallif pozitsiyasini anglash, o'z fikrini asosli bayon qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bu jarayonda o'qituvchining metodik yondashuvi, tanlangan matnning mazmuni va darsda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar katta ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy darslarda quyidagi texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin:

- INSERT texnologiyasi – matnni o'qish jarayonida o'quvchi o'z fikrini belgilab boradi;
- TRIZ texnologiyasi – muammoni hal etish, muqobil yechimlarni topish ko'nikmasini shakllantiradi;
- Klaster usuli – o'quvchilarning erkin fikr yuritishlariga yordam beradi.

1. Matn tahlilida ko'p bosqichli yondashuv modeli:

Matn ustida ishlashda ko'p bosqichli yondashuv modelini tatbiq etish samaradorlikni oshiradi. Ushbu model quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:



Tushunish – matn mazmunini anglash, asosiy g‘oyani ajratib olish;

Izohlash – matndagi so‘z va iboralarning kontekstual ma’nosini ochib berish;

Baholash – matnga tanqidiy yondashish, muallif nuqtai nazarini tahlil qilish;

Muqobil yechim berish – matn asosida yangi g‘oya, ssenariy yoki yakun taklif qilish.

Ushbu bosqichlar orqali o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

2. Pragmatik kompetensiyaning baholash mezonlari:

Ona tili darslarida shakllanayotgan pragmatik kompetensiyani samarali baholash uchun maxsus mezonlarni ishlab chiqish zarur. Baholash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Nutqning aniqligi va mosligi (vaziyatga mos ifoda, adabiy tilga rioya);

Kommunikativ vazifani tushunish (savolga javob berish, mulohaza bildirish, muammoni anglash);

Ijodiy yondashuv (yangicha g‘oya, muqobil fikr yoki yakun taklif qila olish);

Axloqiy-hissiy ifoda (matn orqali ijtimoiy-axloqiy tushunchalarni anglash va ifodalash).

Ushbu mezonlar o‘quvchining faqat bilimini emas, balki amaliy nutqiy va ijtimoiy faoliyatini ham baholashga xizmat qiladi.

Amaliy misollar asosida yondashuvlarni qo‘llash

1-misol. 3-sinf ona tili darsida “Mehribon bola” nomli matn tahlilida INSERT texnologiyasi asosida har bir o‘quvchiga belgilar jadvali taqdim etiladi.

2-misol. 4-sinfda “Vafodor do‘st” matni asosida TRIZ texnologiyasi qo‘llaniladi.

O‘quvchilar muqobil yakunlar ishlab chiqadi.

3-misol. 2-sinfda “Kitob – bilim kaliti” mavzusida klaster usuli yordamida fikrlar xaritasi tuziladi va kichik matnlar yoziladi.

4-misol. 4-sinfda “O‘zbek tili – millat faxri” mavzusida matn ustida ishlash davomida o‘quvchilarga bir nechta savollar beriladi: Matndan muallifning asosiy g‘oyasini toping.



O'zingiz ushbu mavzuda qanday fikrdasiz? Bu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nuqtai nazar bildirish ko'nikmalari rivojlanadi.

5-misol. 3-sinfda “Tabiatni asraylik” mavzusi asosida o'quvchilardan matnga sarlavha qo'yish, muqobil yakun taklif qilish so'raladi. Bu topshiriq orqali o'quvchilar faollashtiriladi va matnga ijodiy yondashish hosil bo'ladi.

6-misol. 2-sinf ona tili darsida “Yaxshi so'z – yarim muloyimlik” maqoli asosida kichik matn tuzish topshirig'i beriladi. Bu esa pragmatik kompetensiyaning asosiy jihatlari – ijtimoiy muloqot, axloqiy tushuncha va hissiy ifoda ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida matn tahlili orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyaning shakllantirish va kreativ yondashuvni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Darslarda innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga, matnga bo'lgan qiziqishining ortishiga xizmat qiladi. O'qituvchining roli esa bu jarayonda faollashtiruvchi, yo'naltiruvchi va tahliliy fikrni rag'batlantiruvchi bo'lishi kerak. Har bir o'quvchi matn orqali nafaqat tilni o'rganadi, balki voqelikni tushunish, unga nisbatan o'z pozitsiyasini bildirishni ham o'rganadi.

Takliflar:

1. Ona tili darslarida matn tahliliga ko'proq vaqt ajratish;
2. O'qituvchilar uchun zamonaviy metodlar bo'yicha seminarlar tashkil etish;
3. Darslik va qo'llanmalarga ijodiy topshiriqlar jamlanmasini kiritish;
4. Har bir matn asosida muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilarda tahliliy fikrlashni rag'batlantirish.
5. Matn tahlilida ko'p bosqichli yondashuv modelidan foydalanish (masalan, tushunish – izohlash – baholash – muqobil yechim berish);
6. Pragmatik kompetensiyaning rivojlantirish uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish va qo'llash.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedova M. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020.
2. Mahkamova.D “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” - Toshkent, 2021.
3. Karimova N. “Matn ustida ishlash metodikasi”. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
4. Xodjayev N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022.
5. Nosirova G. “Boshlang‘ich ta’limda kreativ yondashuvlar”. – “Ta’lim va rivojlanish”, 2023-y. 2-son
6. Ziyayeva S. “TRIZ texnologiyasi asosida dars tashkil etishning samarali yo‘llari”. – “Innovatsion ta’lim”, 2024-y., 1-son.
7. www.ziyonet.uz – O‘zbekiston ta’lim portali
8. www.pedagoglar.uz – O‘qituvchilar uchun elektron kutubxona
9. Jo‘raqulova M. “O‘quvchilarda tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish metodlari”. – Toshkent: “Ilm ziyo”, 2022.
10. Rasulova D. “Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari”. – “Innovatsion pedagogika” jurnali, 2023-yil, 3-son.
11. Yo‘ldosheva L. “Matn asosida o‘qitish texnologiyalari va amaliy yondashuvlar”. – “Zamonaviy ta’lim”, 2021-yil, 4-son.
12. www.eduportal.uz – Ta’lim texnologiyalariga oid elektron resurslar portali